


TENGLAMALAR YECHISHNI O'RGATISH METODIKASI

*Xurshida Do'smuradova Yuldashevna**Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani**27- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o'quvchilari uchun tenglamalar sistemasini yechish ning bir qancha usillari hamda xozirgi kunda dolzarb bo'lgan boshlang`ich sinflarda tenglamalarni yechishni o'rgatish bilan bog'liq muammolar, dars jarayonidagi bolalarga mavzuni yetkazib berish qiyin bo'lgan holatlarga yechim topish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zi: tenglama, tenglamalar sistemasi, tengsizlik, masala, noma'lum son, hadlar, natija, ifoda, murakkab tenglama, sodda tenglama, o'rindosh tenglamalar sistemasi, noo'rindosh tenglamalar sistemasi.

Аннотация: В данной статье рассмотрены несколько способов решения системы уравнений для учащихся младших классов и задачи, связанные с обучением решению уравнений в младших классах, актуальные на сегодняшний день, трудно донести тему до детей на уроках. пути решения этих ситуаций.

Ключевые слова: уравнение, система уравнений, неравенство, задача, неизвестное число, члены, результат, выражение, сложное уравнение, простое уравнение, система совместных уравнений, система несовместных уравнений.

Abstract: This article discusses several ways to solve a system of equations for elementary school students and problems associated with learning to solve equations in elementary school, which are relevant today; it is difficult to convey the topic to children in the classroom. ways to solve these situations.

Key words: equation, system of equations, inequality, problem, unknown number, terms, result, expression, complex equation, simple equation, system of simultaneous equations, system of incompatible equations.

"Metodika" grekcha so'z bo'lib, "metod" degani "yo'l" demakdir. Matematika metodikasi pedagogika fanlari sistemasiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog'i bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muvofiq matematika o'qitish qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tadbiq qiladi. Ilmiy texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda matematikaning roli yanada oshdi, Shuning uchun ham matematik ta'lim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib qoldi. So'nggi yillarda mamlakatimizda o'rta maktab matematika o'qitish butun sistemasida o'z ko'lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo'lgan o'zgarishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunida 2020 yil (23 sentabr) ta’lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilinishi pedagogika, metodika fanlari oldida juda katta ma’suliyatli vazifalarni yukladi. Maktab oldiga prinsipial yangi maqsadlarning qo‘yilishi matematika o‘qitish mazmunining tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Matematika boshlang‘ich kursida ham kattagina o‘zgarishlar qilindi. Boshlang‘ich sinflarning matematikadan yangi dasturlarga o‘tishi munosabati bilan yangi dasturnini tadbiq qilishning ratsional yo‘llarini tutuvchi yangi metodik tizimini ishlab chiqishda matematikani o‘qitishda ilgari to‘plangan eng qimmatli fikrlar hisobga olindi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani muvaffaqiyat bilan o‘qitish uchun mehnat faoliyatini ilk boshlovchi o‘qituvchi matematika o‘qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya’ni boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini egallagan bo‘lishi, shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishi kerak. Matematika o‘qitish metodikasi eng avval kichik yoshdagi o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishning umumiyligi tizimida ularga matematika o‘qitish masalalarini qarab chiqadi. Metodikada boshlang‘ich matematika kursining mazmuni va tuzilishi olib beriladi, ya’ni matematikadan qaysi material boshlang‘ich sinflarda o‘rganishi va nima uchun aynan shu material tanlanishi, boshlang‘ich kursning har qaysi ayrim masalasi umumlashtirishning qanday darajasida o‘rganilishi, kursning mavzulari qanday tartibda qaralishi va nima uchun bu tartib eng ratsional ekanligi ko‘rsatiladi.

Zamonaviy matematikaning rivojlangani sari umumiyligi o‘rta ta’lim matematikasining ham rivojlanib hamda bir muncha qiyinlashib borayotgani hech kimga sir emas, bu ko‘rsatkich oliy ta’lim muassasalari boshlang‘ich kurs talabalarida ham davom etish holatlari kuzatilmoxda. Shu o‘rinda aytish mumkinki boshlang‘ich sinf matematikasiga bir qator yangi mavzularning kiritilishi, yuqori sinflarning 6-7 sinf darsliklariga mantiq amallarining elementlari, kombinatorika elementlari va ehtimollar nazariyasi asoslарining bir nechta misol masalalari shular jumlasidandir.

Mana shu muammo yechimi bo‘yicha maqolalar, dissertatsiyalar, ilmiy ishlar natijalarini tahlil qilgan holda, muayyan ilg‘or pedagogik tajriba vujudga keladi. Quyida muayyan ilg‘or pedagogik tajribani amalda qo‘llashni sizlarga tavsiya qilamiz. Tajribaning maqsadi, o‘quvchilarga murakkab tenglamalar yechishning muammosiz variantini tushuntirishdan iborat.

1. Muammoning kelib chiqish sababini aniqlash va uni bartaraf etish

2. Muammoni bartaraf etish uchun tavsiya qilinadigan tushunchalar. Tenglama so‘zining o‘zagi bu teng so‘zidan iborat bo‘lib boshlang‘ich sinf matematika fanida bu so‘zdan foydalanib tengsizlik tushunchalari kelib chiqiladi. Tengsizlik tushunchalarini biz ko‘proq ifodalarni taqqoslashda ishlatalamiz. Ifoda deganda ko‘proq misollar tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tenglamalar mavzusini o‘rganishni quyidagi rejalar

asosida olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tenglamalarni yechishga o'rgatish uchun ishni nimadan boshlash kerak?

1. Arifmetik amallar
2. Ifoda
3. Tengsizlik
4. Tenglik
5. Tenglamala

Arifmetik amallar hadlari Qo'shish amalining hadlari $3 + 2 = 5$ 3 va 2 ni yig'indisi 5 ga teng 3-qo'shiluvchi 2-qo'shiluvchi 5- yig'indi Arifmetik amallar hadlari Ko'pchilik Ustozlar darslikda berilgani kabi, arifmetik amallar hadlari 3 ta deb tushuntirib kelmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir arifmetik amalda 2 ta had va 1 ta natija borligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday yondashish o'qituvchilarni o'zlariga attestatsiyadagi quyidagi mazmunda keluvchi savolga "Boshlang'ich sinflarda sodda tenglamalarning yechish usullari nechta?" Rasmdan ko'rinish turubdiki, tenglamalar 2 xil: Sodda va murakkab bo'ladi. Ma'lumki tengamalar 2-sinfdan boshlab o'qitiladi. Sababi 2 -sinfga kelib o'quvchilar 4 ta arifmetik amallar bilan tanishib ulgurishadi. barcha arifmetik amallarni o'rganib bo'lgandan so'ng yuqorida ta'kidlaganimizdek har bitta arifmetik amalda 2 ta had va 1 ta natija borligi nuqtai nazardan foydalanib, biz sodda tenglamalarning yechilish usullarini quyidagi tasvirlashimiz mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Matematika darsligi (1-sinf). Turon iqbol. 2021yil
2. Jumayev E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent 2019 yil
3. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Barcha bolaga birdek sifatli ta'limni ta'minlash davr talabi. Inklyuziv ta'lim, 1(1), 243-246.
4. Rasulova, Sharifa Gaynullaevna, and Feruza Yahyaevna Obidova. "ISSUES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT." Theoretical & Applied Science 9 (2019): 426-429.
5. Obidova, F., and Z. Umarova. "FOREIGN EXPERIENCE OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT." Экономика и социум 5-1 (2021): 376-379.
6. Obidova, F. Ya. "GREEN INNOVATION IN BUSINESS MARKET." Экономика и социум 10 (2020): 191-194.
7. Obidova, Feruza Yaxyoevna. "PROSPECTS FOR INNOVATIVE DEVELOPMENT OF TOURISM." Актуальные научные исследования в современном мире 4-10 (2021): 91-95.